

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Farg'ona shahrining geokimyoviy landshaftlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari	117
Sh.Q.Yuldasheva	
Aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorini turli yoshdagi odamlarda o'zgarishi.....	122
Z.A.Jabbarov, G.R.Atoyeva, M.H.Husniddinova	
Tuproqlarning kimyoviy ifloslanish natijasida biologik xossalaringning o'zgarishi	127
X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov	
Cynara scolymus L. O'simligidan ajratib olingen endofit zamburug'lar ekstraktlarining saraton hujayralariga qarshi biologik faoliylklari	133
S.Israiljanov, J.T.Mamasaidov, H.O.Adulboqiyeva	
Og'ir metallarning o'simlik, hayvonlar va odam organizmiga fiziologik ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili	138
M.K.Julihev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov	
Markaziy Osiyoda tuproq eroziysi bo'yicha 1993-2022-yillar oraliq'ida Scopus ma'lumotlar bazasida nashr etilgan maqolalar tahlili	143
X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov	
Analysis of macro and micro elements and water-soluble vitamins of the plant Cynara scolymus L.....	149
S.O.Madumarova, M.Sh.Raximov, M.J.Madumarov, A.A.Tokoev	
Farg'ona vodiysi Cladocera (<i>Crustacea: Branchiopoda</i>) lari ro'yxati.....	157
Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, O.N.Imomov, J.J.Abdukarimov	
Tuproq sifati indikatorlari va ularni qo'llanilishi.....	166
M.A.Tog'ayeva, Sh.A.Samatova	
Qashqadaryo viloyati aholisi iste'mol qilayotgan yumshoq bug'doy navlari tarkibidagi temir elementi miqdori.....	176
M.A.Davidov	
Tabiiy sharoitda <i>Mogoltavia sewerzowii</i> (Regel) korovin antekologik xususiyatlari	181
X.N.Raximov, G.T.Djalilova	
Qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalariiga ta'siri	186
M.R.Qoriyev	
Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o'zgarishlar	191
O.N.Nasirov	
Mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	196
R.A.Ikromov	
Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlarning roli	200
S.Nishonova	
Maqollar paremiologik birlik sifatida	205
Sh.A.Tadjibaeva	
Rahbar ayol imidji tushunchasi va uni shakllantirishning psixologik xususiyatlari	208
S.S.Jabborova	
Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy salohiyatdan foydalananish istiqbollari.....	213
E.U.Gulzoda, A.Z.Rashidov	
Ijodiy faoliyat uchun, o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo'lib xizmat qilishi omillari.....	219
K.M.Nilufar	
Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi.....	222
T.Quyliyev	
Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli	227
B.M.Qandov	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda sog'lom mafkuralarning roli	233
Z.A.Akbarova, G.M.Nosirova	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvismning ta'siri	238
F.F.Muydinov	
Tibbiy ta'linda media ta'limga asosida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari.....	242
Z.S.Paziljanova	



УО'К: 316.647:17.022

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOG'LOM MAFKURALARNING ROLI

РОЛЬ ЗДОРОВЫХ ИДЕОЛОГИЙ В ПОДДЕРЖАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ

THE ROLE OF HEALTHY IDEOLOGIES IN MAINTAINING SOCIAL STABILITY

Qandov Bahodir Mirzaevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada, dunyo miqyosida paydo bo'layotgan turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan yoshlarda sog'jom dunyoqarash, g'oyaviy mafkuraviy immunitetni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanib borayotganligi to'grisidagi masalalar ijtimoiy falsafiy tahlil etilgan. Shuningdek maqolada, mamlakatimiz yoshlarini teran fikr yuritishga o'rgatish orqali istiqbolli qarorlar qabul qilishga tayyorlab borish masalalari o'rganilgan. Maqolada globallashuv sharoitida milliy g'oyani yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish bilan bog'liq jarayonlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье проводится социально-философский анализ вопросов формирования здорового мировоззрения, идеологического иммунитета у молодежи по отношению к различным идеологическим угрозам, возникающим в глобальном масштабе. Также в статье рассматриваются вопросы подготовки молодежи нашей страны к принятию дальновидных решений путем обучения ее глубокому мышлению. В статье с социально-философской точки зрения анализируются процессы, связанные с развитием инновационных технологий внедрения национальной идеи в умы, сердца и внутренний мир молодежи в условиях глобализации.

Abstract

This article provides a socio-philosophical analysis of the issues of developing a healthy worldview, ideological immunity among young people in relation to various ideological threats that arise on a global scale. The article also discusses the issues of preparing the youth of our country to make far-sighted decisions by teaching them deep thinking. From a socio-philosophical point of view, the article analyzes the processes associated with the development of innovative technologies for introducing the national idea into the minds, hearts and inner world of young people in the context of globalization.

Kalit so'zlar: vatan, vatanparvarlik, jamiyat, g'oya, milliy g'oya, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, mafkura, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy tahididlar, Yangi O'zbekiston. taraqqiyot strategiyasi, barqaror taraqqiyot.

Ключевые слова: Родина, патриотизм, общество, идея, национальная идея, образование, воспитание, духовность, идеология, идеологический иммунитет, идеологические угрозы, Новый Узбекистан. стратегия развития, устойчивое развитие.

Key words: Motherland, patriotism, society, idea, national idea, education, upbringing, spirituality, ideology, ideological immunity, ideological threats, New Uzbekistan, development strategy, sustainable development.

KIRISH

Har qanday mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlash haqida gapirar ekanmiz, shunday xulosaga kelishimiz mumkin, ya'ni har qanday sohaga mafkuraning ta'siri bor. Taraqqiyot bilan mafkura o'tasida har doim o'ziga xos dialektik aloqa mavjud bo'lgan va bo'ladi. Haqiqatan ham, har bir mamlakatning o'ziga xos taraqqiyotida rasmiy (huquqiy asosga ega) yoki norasmiy (huquqiy asosga ega bo'limgan) mafkurasi muhim rol o'ynaydi. Shundan kelib chiqib, mafkurani mamlakatning yoki biror bir millatning taraqqiyotini belgilab beruvchi eng muhim omil, deya e'tirof etishimiz mumkin. Uning jamiyat hayotidagi tutgan o'nidan va mamlakat taraqqiyoti va rivojidagi o'rnidan kelib chiqqan holda mafkuraviy jarayonlarni nafaqat ma'naviyatshunoslik, siyosiy fanlar, tarix va boshqa ijtimoiy fanlarda, shu bilan birgalikda uni falsafiy fanlar tizimida ham tadqiq va tahlil e tish maqsadiga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuni aytish kerakki, mafkura masalasini tadqiq va tahlil etishda, ba'zi kishilar ushbu masalani bir xavfli narsaga ya'ni salbiy narsaga qaragandek qarashadi. Bundaylar, avvalo, mafkuraning o'zi nimaligini idrok eta olishmaydi yoki uning mazmun mohiyatini anglamaydilar. Bu kabi insonlar mafkurani o'ta tor ma'no-mazmunda, jamiyat hayotida bo'lib o'tgan va hozirda mayjud bo'lgan aniq mafkuralarning g'ayriinsoniy faoliyatiga bog'lagan holda tushunadilar. "Bunday odamlarning mafkura borasidagi noto'g'ri tushunchasi tufayli hozirgi davrda "mafcura" tushunchasi semantik jihaddan undan amalda foydalanib bo'lmaydigan darajada sayozlashib ketgan"[3, 213]. Mafkura masalasini ba'zi bir kishilar bir xil mazmunda talqin qilishsa, ba'zilari esa unga o'zgacha mazmun baxsh etishadi. Lekin aksariyat hollarda mafkura masalasiga biron-bir tayinli mazmun berishmaydi. Unga nisbatan o'zlarining pozitsiyasidan turib baho berishadi. Shunisi achinarlik, bunday kishilar mafkura masalasini chuqur o'rganmasdan turib bu masalaga noto'g'ri yondashishadi.

Jahonda mafkuraviy muammolarni o'rganishning dolzarbligi, birinchi navbatda, zamonaviy global hamjamiyatning boshidan kechirayotgan qadriyatlarining inqirozi bilan belgilanadi. Shu davrgacha amal qilib kelingan an'anaviy qadriyatlarning pasayishi birinchi navbatda bugungi globallashuv va uning oqibatlari bilan bog'liq deb aytishimiz mumkin. Globallashuvning tobora chuqurlashib borishi turli mafkuralarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ijobiylari salbiy ta'siri ortib borayotgan global siyosiy jarayonlar ko'lami milliy davlatlarning jamiyatda ma'nnaviy xavfsizlikni ta'minlash texnologiyalarini tizimli ravishda takomillashtirish orqali barqarorlikni ta'minlash hozirgi davrda milliy-ma'nnaviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi dolzarb vazifa hisoblanadi. Mana shunday bir jarayonda milliy va umuminsoniy ma'nnaviyatning turli ta'sirlarga uchrash jarayoni ko'z oldimizda sodir bo'lmoida. Yuksak taraqqiyotga erishgan davlatlar dunyoga etakchilik qilayotgan bir davrda, hali o'zligini anglashga ulgurmagan, endi rivojlanish yo'liga o'tgan millat va xalqlarning turli ma'nnaviy tahdidlarga bardosh berish masalasi tobora dolzarblastashib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Globallashgan jamiyat va unga turli mafkuralar ta'siri jarayonida vujudga kelayotgan mafkuraviy tahdidlar va xavf-xatarlarga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ilmiy natijalar olingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlari, xususan, davlat rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi va keng ko'lami islohotlar olib borish borasidagi g'oyalari ushbu tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qilsa, sohaga oid qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning uslubiy bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Davlat va jamiyat xavfsizligining nazariy va amaliy jihatlari qadim zamonlardayoq Konfutsiy, Platon, Aristotel, Suqrot, Sitseron tomonidan o'rganilgan. Sharqda Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Nizomul-mulk, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning asarlarida[5] jamiyat a'zolarini turli yot ma'nnaviy tahdidlardan asrabavaylash, davlat milliy-ma'nnaviy xavfsizlik tizimini shakllantirish uslubiyati, tizimlari va jarayonlari rivojlantirilgan.

Mafkuraviy masalalar ko'pgina xorijlik mashhur olimlarning ham tadqiqot obyektiga aylangan. O'rta asrlarda g'arb olimlari davlat va jamiyat hayotiga tahdidlar masalasiga doir siyosiy qarashlar takomillashtirilgan. Xususan, M.Veber, E.Kant, rus olimlari N.Berdyaev, V.Fedotova asarlarida mafkuraviy tahdidlarning oldini olish va bu murakkab jarayonda fuqarolarning siyosiy madaniyatini oshirish zarurligi asoslangan.

Yuqorida qayd etilgan xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida mafkuraviy masalalarning turli jihatlari ko'rib chiqiladi, ammo bizningcha, g'oya va mafkuralar transformatsiyasi etarlicha o'rganilmagan.

O'zbek olimlari tomonidan ham so'nggi yillarda g'oya va mafkuralar transformatsiyasi mohiyatini ochib berish bilan bir qatorda, milliy g'oya va mafkuruning turli qirralarini kengroq yoritish, yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, g'oyaviy tarbiya jarayonida ularning ehtiyoj va manfaatlarini inobatga olishning ahamiyati kabi masalalar tahliliga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

ILMIY AXBOROT

Shu nuqtayi-nazardan qaraganda, Q.Nazarov, N.Jo'raev, M.Quronov, I.Ergashev, S.Otamurodov, S.Mamashokirov, A.Ochilidiyev, F.Ravshanov, B.T.To'ychiyev, O'.M.Abilov, T.Alimardonov, M.M.Gafarli, A.Ch.Kasayev, F.Jo'raqulov, SH.To'rayev, M.Qirg'izboyev, M.Qaxxarova kabi olimlarning ilmiy ishlari tadqiqotimiz oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi[6]. Mamlakatimizda mustaqillik yillarda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish tajribasi bilan bog'liq masalalar tahliliga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi doirasidagi tadqiqotlar qatoriga Q.Quranboyev, S.Jo'rayev, D.Bo'ronova, F.Ravshanov, M.Yuldashev, Z.Qodirova, E.Bobomurodov, G.Tulenova, V.Quchqarov kabi olimlarning izlanishlari va ilmiy ishlarini kiritish mumkin.

G'oya va mafkuralarning transformatsiyalashuvi uning boshqa xalqlar va millatlar ma'naviyatiga ta'siri, bunda jamiyat a'zolarining ongi, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish faoliyati qo'plab olimlar va mutaxassislar tomonidan o'rganilmoqda, ularning xilma-xil jihatlari tadqiq qilinmoqda.

NATIJALAR

Mafkuralar transformatsiyalashuvi jarayonlarining tobora avj olishi insoniyat mutlaqo o'zgacha muhit, yangicha talab va ilgari kuzatilmagan xavf-xatar hamda tahididlar quchaygan bir sharoitda yashashiga to'g'ri qelmoqda. Bunday murakkab sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Xalqimizga xos bo'lgan bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini taraqqiy etishida millatlararo totuvlik, konfessiyalararo hamkorlik muhitini hukm surishi fuqarolarimizni xususan, yosh avlodni ona Vatanga fidoiy va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z navbatida mazkur omillar, O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Yurtimizda mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohatlarni ro'yobga chiqarish maqsadida mamlakatimizda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Mazkur muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida "Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon qilib olindi. Ushbu strategiyaning "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" deb nomlangan V yo'nalishida bir qator vazifalar asosiy maqsad qilib belgilab berilgan. Strategiyaning mazkur yo'nalishida belgilangan vazifalar 73-maqsadda Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqr o'rganish va keng targ'ib etish ya'ni IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans" shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng targ'ib qilish maqsadida yurtimizdan etishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqr o'rganish va keng targ'ib etish maqsadida O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi, Islam sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termizi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'ynamoqda", – degan so'zlari zamirida naqadar katta ishonch mujassam ekanini ta'kidlash maqsadga muvofiqli. Zero, ma'naviyatimizning o'zvii qismi xalqimizga xos etnik madaniy va diniy bag'rikenglikning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi, buni o'zga din vakillari ham e'tirof etishadi.

Taraqqiyotning hozirgi rivojlanish bosqichida kelajakka katta umid va ishonch bilan shahdam odimlayotgan O'zbekiston keyingi besh yil mobaynida keng miqyosdag'i ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda amalga oshirilgan o'zgarishlar bilan ham boshdan kechirib, yuksalishning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'ydi.

Xalqimizning siyosiy tafakkuri, ijtimoiy faolligi va olib borilayotgan islohotlarga daxldorlik tuy'usi tobora ortib borayotgan hamda bosib o'tilgan shonli yo'limizga nazar tashlar ekanmiz, bugun "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan da'vatkor g'oya hayotimizga tobora chuqr kirib borayotgan ekan, ana shunday taraqqiyot sari intilayotgan bizning yurtimiz O'zbekiston deb atalgan, jannatmakon yurtdir. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Yangi O'zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqr

o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir"[2, 31], degan so'zları ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligiga erishishda va fuqarolarniing ayniqsa yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlashida o'z isbotini topdi.

Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlardan ko'zlangan ulug' maqsad – yosh avlodga zamonaviy ta'lim-tarbiya berish, ajdodlarimiz boy merosini o'rganish va xalqimizga yetkazishdir. Qadimdan ajdodlarimiz o'zlarining yuksak ma'naviyati, ulug'vor insoniy fazilatlari bilan nafaqat sharqda, balki butun olamga dong taratgan. Chunonchi, "Buyuk ajdodlarimizga xos azmu shioat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg'ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo'lini izchil davom ettirish – eng dolzarb vazifamizdir"[1, 9].

Mustaqillik bergen buyuk ne'matlardan biri ham shundaki, millatimizni o'tmishi kamida uch ming yilga borib taqaladigan haqqoni tarix bilan qurollantirish imkonini yaratib berdi. Bu esa, yoshlarni ajdodlarga munosib avlodlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixning o'tgan qisqa muddati davrida biz o'zligimizni, o'z g'oymiz, milliy g'ururimiz va tafakkurimizni anglash tuyg'usini boshimizdan kechirmoqdamiz. Bu tuyg'uning ildizi bo'lgan o'tmis esa bugungi kunga hamohang er yuzidagi ba'zi xalqlargagina nasib etadigan yuksak ko'tarilish va taraqqiyot zamoni, ya'ni Renessans davri buyuk ajdodlari g'oyalari, tafakkuri bilan ma'naviy bog'liq ekan, ular qoldirgan boy merosni avaylab-asrash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Shu o'rinda, O'zbekistonning 2022-2032-yillarga mo'ljallangan ma'naviy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqish va uni davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirish, "Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiysi va uni amalga oshirish milliy dasturini ishlab chiqish taklifi Prezident Shavkat Mirziyoyevning yangi nashr etilgan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli asarida ilgari surilgan bo'lib, jamiyatning ma'naviy yuksalishiga erishish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarishini yuksaltirish, mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylantirish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

MUHOKAMA

Yangi O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yilgan hozirgi davrda Uchinchi renessans poydevorini yaratishga bel bog'langan. Ana shu maqsadni ko'zlagan Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev "milliy ma'naviyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan ulug' allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo'lyozmalarini o'rganish, mavjud nuxsalarini yurtimizga olib kelish, atroficha tadqiq qilib, xalqimizga etkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilishi"[1, 34] yo'lida amaliy harakatlarga undab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida "Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va buniyodkorlikni umummilliylar harakatga aylantirish" maqsadi 71-bandda[7] keltirilgan. Yangi O'zbekistonning intellektual salohiyatlari yoshlarni buyuk zotlarga munosib etib tarbiyalash uchun o'tmishga hamohang bugungi kunimizgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oya va amaliy harakatlarda o'z ifodasini topayotgan har bir ishda yaratuvchanlik, mehnat qilish, buniyodkorlik ishlarini yo'lga qo'yishda buyuk allomalar boy merosini chuqur o'rganish muhim o'r'in egallaydi, ularni iste'dodlarini namoyish qilishga undaydi va yangi kashfiyotlar sari otlanadiradi.

O'zbekiston Respublikasi hozirda kuchli davlat negizida kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga intilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "bu yo'l – erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zamini"[8, 8], deya ta'kidlaydi.

Globallashuv muhiti bugungi kunda g'oyalari aniq va sog'lom, yetuk va insonparvar, e'tiqodi butun, qadriyatları yuksak shaxslarni bugungi o'ta tezkor zamonda har qanday yot g'oyalarga qarshi kurashuvchan mafkuraviy immuniteti barqaror shakllangan shaxslarni tarbiyalash masalasi borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "O'zbekistondagi har bir fuqaro, qaysi lavozimda ishlashidan qat'i nazar, avvalo tarbiyachi ekani, farzandlarimiz taqdiri uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni anglash tobora kuchaytirilmoqda. Bu masala zamonning o'tkir talabiga aylangan dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda"[9].

ILMIY AXBOROT

Dunyoda global miqyosda turli tajovuzkor, buzg'unchi g'oyalar zamonaviy axborot texnologiyalari orqali butun dunyoga tarqalmoqda. Jahonda axborot xuruji, ma'naviyat va madaniyat niqobi ostida g'oyaviy-mafkuraviy tahididlar kuchaymoqda.

XULOSA

Yurtimiz yoshlarini har tomonlama barkamol inson va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda aniq maqsadga yo'naltirilgan hukumat siyosati izchil olib borilmoqda. Bugun O'zbekiston yoshlari haqiqiy Vatanparvarlik shijoatini dunyoda barcha sohalarda o'zlarini nimalarga qodir ekanligini to'liq namoyon etmoqda. Mazkur fikrlar davlatimiz raxbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan aytilgan fikrlarida ham o'z aksini topgan: "Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham fuqarolarimizda bizga mutlaqo yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va Vatanimiz taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ko'rishimiz shart"^[10], - degan so'zları zamirida katta haqiqat yotibdi. Ma'lumki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishqisi jo'sh urgan oriyatlari ma'naviy jasoratga ega odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni quvnotib tursin.

Dunyoda global miqyosda turli tajovuzkor, buzg'unchi g'oyalar zamonaviy axborot texnologiyalari orqali butun dunyoga tarqalmoqda, jahonda axborot xuruji, ma'naviyat va madaniyat niqobi ostida g'oyaviy-mafkuraviy tahididlar kuchaymoqda. Shu bois, aholining keng qatlamlarida xususan, yoshlarda milliy g'oyaga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'ularini, yuksak axloqiy va estetik me'yordi va qarashlarini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga e'tibor qaratish tobora oshib bormoqda. Ayni vaqtida ijtimoiy tarmoqlardan tarqatilayotgan "ommaviy madaniyat" namunalari ta'sirida yoshlar tarbiyasiga rahna soluvchi buzg'unchi g'oyalar ta'sirida jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terrorizm ta'siriga tushish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik kabi salbiy illatlarni namoyon bo'layotganligi bugun barchamizdan teran fikrashni taqozo etayotir. Zero, bugungi globallashuv shiddati bugungi kunda g'oyalari aniq va sog'lom, etuk va insonparvar, e'tiqodi butun, bugungi o'ta tezkor zamonda har qanday yot g'oyalarga qarshi kurashuvchan mafkuraviy immuniteti mustahkam shaxslarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.– B.9.
2. Mirziyoyev Sh.Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: O'qituvchi MU MCHJ, 2021.– B.31.
3. G'oibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. –B. 213.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni// Xalq so'zi, 2022-yil 29-yanvar.
5. Kandov B.M. (2023) The negative impact of social networks on the spirituality of young people in the context of globalization // **Web of Scientist: International Scientific Research Journal**. Volume 4, Issue 3. – pp. 780-789.
6. Nazarov K. et al. National idea and development strategy of Uzbekistan. - Tashkent: National Society of Philosophers of Uzbekistan, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni// Xalq so'zi, 2022-yil 29-yanvar.
8. Ibrokhimov F.A. (2023) [Din va huquq](#). Academic research in educational sciences, №1. – pp. 814-816.
9. Farhod Ibrohimov. (2022) [Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va axloqiy garashlari xususida](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Volume 5, Issue 28. – pp. 174-180.
10. Ibrokhimov F.A. (2023) [Improving Youth Law Culture Based on the Cluster System and Modern Pedagogical Approaches](#). Miasto Przyszlosci, Volume 41. – pp. 1-4.
11. Ibrokhimov F.A. (2023) [Modern pedagogical approaches in legal education](#). GOLDEN BRAIN. Volume 1, Issue 32. – pp. 174-180.